

## **Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoniga 22-26 may kunlari 209 nafar fuqarodan murojaatlar kelib tushdi**

Murojaatlar bo‘limi xodimlari 22-26 may kunlari **Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya, kardiologiya, neyroxiturgiya, endokrinologiya, urologiya, akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari** imtiyozli yo‘llanma bilan davolanib chiqqan **216 nafar** bemorlar bilan tibbiy yordamni baholash hamda tibbiy yordam sifati yuzasidan telemuloqatlar o‘tkazdilar.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefon(**99 353 93 54, 94 353 93 54**)lariga 22-26 may kunlari **209 ta** fuqarolardan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan “**sms**” xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og‘zaki murojaatlari** bo‘ldi.

Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi xodimlari hafta davomida **425 nafar** fuqarolar bilan telemuloqatlar o‘tkazdilar.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga hafta mobaynida imtiyozga ega fuqarolardan ishonch telefoniga **11(5,2%) ta og‘zaki e’tirozli murojaatlar** kelib tushdi.

### **Shulardan:**

Respublika ixtisoslashtirilgan **neyroxiturgiya** ilmiy-amaliy tibbiyot markazida, **Bolalar milliy tibbiyot markazida, Toshkent tibbiyot akademiyasi** ko‘p tarmoqli klinikasida, **Samarqand viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida** imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan bemorlar **davolanish sifatidan, o‘z hisobidan dori vositalari sotib olayotganligi** hamda **shifokorlar qarovidan noroziligini bildirib** Jamg‘armaning ishonch telefoniga **og‘zaki murojaatlar** qildilar.

Ushbu murojaatlar yuzasidan shifoxona mas’ullari va xududiy bosh mutaxassisiga telefon orqali murojaatchilarning ma’lumotlari berildi, bemorlar e’tirozlari o‘rninligi yuzasidan tushuntirildi, **og‘zaki murojaatlar o‘z vaqtida bartaraf qilindi**.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Toshkent viloyatlarida** yashovchi **imtiyozga ega fuqarolardan** Jamg‘armaning ishonch telefoniga kelib tushgan og‘zaki murojaatlar xududiy bosh mutaxassislarga ma’lumotlari berildi, **og‘zaki murojaatlar ijobi hal qilindi**.

Xududiy bosh mutaxassislarga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga imtiyozli yo‘llanma asosida shifoxonaga davolanishga yotgunga qadar Sog‘liqni saqlash xodimlari mas’ul bo‘lishligi, imtiyozli yo‘llanma bilan davolanishda ko‘rsatilgan tibbiy yordam hajmi va sifati yuzasidan e’tirozlarni Jamg‘arma manzillariga murojaat qilish yuzasidan joy(KTMP, OP, OShP)larga qo‘ylgan **“Eslatma”** bo‘yicha hududlardan ijrosi yuzasidan ma’lumotlar jamlanmoqda.

Jamg‘arma manziliga Toshkent shahar Yunusobod tumanida yashovchi imtiyozga ega fuqaro imtiyozli yo‘llanmasida ko‘rsatilgan davolanish joyini o‘zgartirish masalasida, Toshkent viloyati Bo‘ka tumanida yashovchi fuqaro moddiy yordam so‘rab og‘zaki murojaat qilib keldi. Fuqarolar murojaatlari tegishligi yuzasidan qaysi manzilga murojaat qilishligi tushuntirildi.

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi  
Matbuot xizmati**